

**BO'LAJAK TASVIRIY SAN'AT O'QITUVCHILARINI KASBIY
KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING
AMALIY-TEXNOLOGIK TIZIMI**

Adxamova Oltinoy Rafiqjon qizi

Toshkent davlat pedagogika universiteti Tasviriy

san'at yo'nalishi 1-bosqich magistranti

e-mail: oltinoyadhamova@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur maqolada bo'lajak tasviriy san'at fani o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishning amaliy-texnologik tizimi ahamiyatli jihatlari va kasbiy kompetentlikni shakllantirish yo'nalishlari hamda mexanizmlari, uni rivojlantirishning shart-sharoitlari va imkoniyatlaridan unumli foydalanish haqida fikr mulohaza yuritadi, kompetensiya va kompetentlik tushunchalari haqida bir qancha ma'lumotlar bayon etadi.*

Kalit so'zlar: *kompetensiya, kompetentlik, o'qituvchi, texnologiya, tizim, ta'lim, mutaxassis, tasviriy san'at, jamiyat, talaba, tajriba, malaka.*

**ПРАКТИКО-ТЕХНОЛОГИЧЕСКАЯ СИСТЕМА РАЗВИТИЯ
ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ
ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОГО ИСКУССТВА**

Аннотация: *В статье рассматриваются важные аспекты практико-технологической системы развития профессиональной компетентности будущих учителей изобразительного искусства, а также направления и механизмы формирования профессиональной компетентности, условия и возможности ее развития, рассказывается о понятиях компетентности и компетентности. некоторая информация о.*

Ключевые слова: *компетентность, компетентность, педагог, технология, система, образование, специалист, изобразительное искусство, общество, ученик, опыт, компетентность.*

**PRACTICAL-TECHNOLOGICAL SYSTEM OF DEVELOPING
PROFESSIONAL COMPETENCE OF FUTURE TEACHERS OF FINE ARTS**

Annotation: *This article discusses the important aspects of the practical-technological system of developing the professional competence of future teachers of fine arts and the*

directions and mechanisms for the formation of professional competence, the conditions and effective use of opportunities for its development, and provides some information about the concepts of competence and competence.

Keywords: *competence, competence, teacher, technology, system, education, specialist, fine arts, society, student, experience, qualification.*

KIRISH

Ilm-fan har qanday davlatning buguni va kelajagini ko‘p jihatdan hal qiladigan bebaho boylikdir. Bugungi kunda tadqiqotlar natijalarini ilmiy jihatdan tahlil qilmasdan va o‘zlashtirmasdan rivojlanishi mumkin bo‘lgan iqtisodiyotning biror bir tarmog‘i, jamiyat hayotining biro sohasi yo‘q. Dunyoning aksariyat mamlakatlari moliyaviy-iqtisodiy inqirozni kechirayotgan bir paytda O‘zbekistonda ishlab chiqarishni ilg‘or texnologiyalari asosida modernizatsiya qilish, ilmiy–texnika salohiyatidan samarali foydalanish, iqtisodiyotimizni rivojlantirishda innovatsiya yo‘liga o‘tish muhim strategik ahamiyat kasb etmoqda.

Kompetentsiya, kompetentlik zamonaviy tadqiqotlar asosiy yo‘nalishlarining markaziy muammosiga aylanib ulgurdi, deyish mumkin. Ilmiy pedagogik, psixologik manbalarda berilishicha, kompetensiya, kompetentlik o‘ta murakkab, ko‘p qismli, barcha fanlar uchun mushtarak bo‘lgan tushunchalardir. Shu boisdan uning talqin va izohlari tarkibiga ko‘ra va ma‘no, mantiq mundarijasi jihatidan turli-tuman. Kompetensiya –fan bo‘yicha egallagan nazariy bilim, amaliy ko‘nikma va malakalarni kundalik hayotida duch keladigan amaliy va nazariy masalalarni yechishda foydalanib, amaliyotda qo‘llay olishdir. Terminning mohiyati “samaradorlik”, “moslashuvchanlik”, “yutuqlilik”, “muvaffaqiyatlilik”, “tushunuvchanlik”, “natijalilik”, “uquvlilik”, “xossa”, “xususiyat”, “sifat”, “miqdor”, “o‘lchov” kabi tushunchalar asosida tavsiflanmoqda. Umumiy qilib aytganda, “Kompetentlik –aniq bir kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarni egallaganlik xususiyatidir”. Kompetentlik tarkibiga sof kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalardan tashqari, tashabbuskorlik, hamkorlik, guruhda ishlash layoqati, kommunikativ qobiliyati, real baholay olish, mantiqiy fikrlash, axborotni saralash va foydalana olish xususiyatlari ham kiradi.³⁵

Ta‘lim va tarbiyani insonparvarlashtirish ta‘lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplaridan biri ekanligi “Ta‘lim to‘g‘risida”gi qonunning 3-moddasida belgilab qo‘yilgan. Shunga muvofiq, bo‘lajak mutaxassislariga kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalar

³⁵ <https://in-academy.uz/index.php/ejar/article/view/2079/1960>

berish bilan birga ularni kasb-hunarga yo‘naltirishda mehnatsevarlik, vatanparvarlik, xalqqa yaxshilik qilish, tabiat va insonga mehr-shafqatli, muruvvatli, saxovatli bo‘lish, xalq hunarmandchiligi, milliy va kasbiy an‘analar, diniy e‘tiqod, odamlarning shaxsiy fikrlari va his-tuyg‘ularini hurmat qilishni o‘rgatishdan iborat. Zero, bo‘lajak kadrni bunday kasbiy kompetensiyalar va shaxsiy sifatlar uyg‘unligi asosida tarbiyalab borish o‘quvchini to‘g‘ri va ongli ravishda kasb-hunarga yo‘naltirishda ijtimoiy ahamiyat kasb etadi. Mana shu holatda ijtimoiy va kasbiy burchni anglagan holda kasb tanlash hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lgan ijtimoiy motiv hisoblanadi.

Tasviriyy san‘at darslarida o‘quv-tarbiya ishlari jarayonida talaba yoshlarni ijodiy fikrlashga, o‘zgaruvchan vaziyatlarga o‘rgatish, erkin raqobat asosida faoliyatni tashkil etish hamda talabalarni axborot texnologiyalari, elektron darsliklar, versiyalar va multimedialardan amaliy mashg‘ulotlarda foydalanishi muhimdir. Bu esa talabalarda mustaqillik, erkin fikrlashni tarbiyalashni, o‘quv faoliyatini tahlil qilishni, istiqbolda kasbiy mahorat va kompyuter savodxonligini orttirish bo‘yicha rejalarini aniq belgilashiga erishishni ularning ichki ehtiyojiga aylantirish talab etilganligini ko‘ramiz.

METADALOGIYA

O‘qituvchining kasbiy shakllanishi oliy o‘quv yurti dargohida kasbiy ta‘lim olish jarayonida boshlanadi. Pedagogika oliy o‘quv yurtlarining o‘quv-reja va fanlar bo‘yicha dasturlarida bo‘lajak o‘qituvchilarga shu kasbning sir-asrorlarini o‘rgatish, ilmiy bilimlar berish, o‘qituvchi kasbi haqida ma‘lumot berish va ko‘nikma hosil qilish nazarda tutiladi. Ta‘lim jarayonida fanlar bo‘yicha amalga oshiriladigan seminar, amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlari nazariy bilimlarni mustahkamlashga hamda ularni ko‘nikmaga aylantirishgagina emas, balki ularni amaliy ish jarayonida qo‘llashga ham imkon beradi. Bunday mashg‘ulotlar tanlagan kasbi to‘g‘ri ekaniga ishonch hissini uyg‘otadi. Oliy o‘quv yurtidan keyingi davrdagi o‘qituvchining kasbiy shakllanish jarayonida maktab rahbariyati, ayniqsa, ilmiy mudir hamda pedagogik jamoatchilik katta rol o‘ynaydi.

O‘zbekiston Respublikasida ta‘limning uzluksizligi, uzviyligi, o‘quvchi shaxsi va qiziqishlari ustuvorligidan kelib chiqib, ularning yosh xususiyatlariga mos ravishda Tasviriyy san‘at darslarida quyidagi tayanch kompetensiyalar shakllantiriladi:

a) Kommunikativ kompetensiya —ijtimoiy vaziyatlarda ona tilida hamda birorta xorijiy tilda o‘zaro muloqotga kirisha olishni, muloqotda muomala madaniyatiga amal qilishni, ijtimoiy moslashuvchanlikni, hamkorlikda jamoada samarali ishlay olish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

b) Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi —mediamanbalardan zarur ma‘lumotlarni izlab topa olishni, saralashni, qayta ishlashni, saqlashni, ulardan samarali foydalana

olishni, ularning xavfsizligini ta'minlashni, media madaniyatga ega bo'lish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

c) O'zini o'zi rivojlantirish kompetensiyasi —doimiy ravishda o'z-o'zini jismoniy, ma'naviy, ruhiy, intellektual va kreativ rivojlantirish, kamolotga intilish, hayot davomida mustaqil o'qib-o'rganish, kognitivlik ko'nikmalarini va hayotiy tajribani mustaqil ravishda muntazam oshirib borish, o'z xatti-harakatini muqobil baholash va mustaqil qaror qabul qila olish ko'nikmalarini egallashni nazarda tutadi.

d) Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi —jamiyatda bo'layotgan voqea, hodisa va jarayonlarga daxldorlikni his etish va ularda faol ishtirok etish, o'zining fuqarolik burch va huquqlarini bilish, unga rioya qilish, mehnat va fuqarolik munosabatlarida muomala va huquqiy madaniyatga ega bo'lish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

e) Milliy va umummadaniy kompetensiya —vatanga sadoqatli, insonlarga mehr-oqibatli hamda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga e'tiqodli bo'lish, badiiy va san'at asarlarini tushunish, orasta kiyinish, madaniy qoidalarga va sog'lom turmush tarziga amal qilish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

f) Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyasi —aniq hisob-kitoblarga asoslangan holda shaxsiy, oilaviy, kasbiy va iqtisodiy rejalarni tuza olish, kundalik faoliyatda turli diagramma, chizma va modellarni o'qiy olish, inson mehnatini yengillashtiradigan, mehnat unumdorligini oshiradigan, qulay shart-sharoitga olib keladigan fan va texnika yangiliklaridan foydalana olish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

Tasviriy san'at sohasida bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy tayyorlash, shaxsning ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish masalalariga, hamda ijodiy jihatdan yoshlarni kasbiy tayyorlash masalalarida qadimgi Yevropa Badiiy Akademiyalarining mashhur rassomlari, nazariyotchilaridan Lonardo da Vinchi, Mikeladjelo Buanorotti, Piter Paul Rubens. Rafael Santi, Albrect Dyurer va boshqalarning ilmiy va ijodiy asarlarini keltirish mumkin. Rossiya tasviriy san'at namoyandalaridan 19-20 asrda ijod qilgan I.Ye.Repin, N.Savrasov, Pavel Chistyakovlarning ijodiy hamda ilmiy ishlarni keltirish mumkin. Rus pedagog va psixologlardan A.V.Bakushinskiy, L.S.Vygodskiy, Ye.I.Ignatev, Ye.A.Flerina, T.S.Komarova, S.Ye.Ignatev, S.L.Rubinshteyn, B.M.Teplovlar bo'lajak pedagogni ijodiy jihatdan kasbiy tayyorlash masalalariga murojaat qilgan bo'lsalar, mutaxassislik fanlarini o'qitish metodikasini takomillashtirish muammolariga bag'ishlangan masalalarga olimlardan L.G.Medvedev, L.A.Ivaxneva, V.K.Lebedko, Ye.V.Shoroxov, V.S.Kuzin, V.V.Koreshkov, A.S.Xvorostovlar o'zlarining ilmiy tadqiqot ishlarida murojaat qilganlar. O'zbekistonlik olimlardan B.B.Baymetov, S.S.Abdullayev, B.B.Azimov, N.X.Tolipov, Q.Q.Qosimov, R.X.Xasanov va boshqalar olib borganlarlar. Har qanday o'quv

predmetining rivojlanishi tarixiy rivojlanish jarayonlari bilan bevosita bog‘liq. XVII asrda akademik rasm chizishning nazariy qoidalari Uyg‘onish davri rassomlarining talqinlaridayoq ifoda etila boshlangan. XVIII asrda yuzaga kelgan suratga akademik o‘qitish nazariyasi ma’lum o‘zgartirishlar kiritilib, endi badiiy amaliyot yangi sharoitlarida amalga oshirildi. XIX asrda akademik rasm nazariyasi va amaliyotida o‘quv masalalarini kompleks hal etish bo‘yicha faol izlanishlar boshlangan.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Tasviriy san’atni o‘qitish amaliyotida o‘quvchilarning mustaqil ishlariga formal ravishda qaralib, ularda mustaqil faoliyatlarini shakllantirish va rivojlantirish imkoniyatlari inobatga olinmaydi. Pedagogik amaliyotda o‘quvchilarning mustaqil ishlari darsning turli bosqichlaridagi didaktik vazifalar bilan moslashtirilmay qolgan, balki o‘quvchilarning fikrlash qobiliyatini rivojlantirish o‘rniga reproduktiv harakatlari chizmani ko‘chirish, geometrik yasash kabi ishlarga e’tibor qaratilgan. O‘quvchilarning bilish qobiliyati rivojlantirish muammosining dolzarbligi, birinchidan, mazkur mavzuning ta’rifi bo‘yicha pedagog olimlar o‘rtasida yagona fikr yo‘qligidan bo‘lsa, ikkinchidan, rivojlantirish usullari ham, ilmiy-metodik adabiyotlarda turlicha talqin qilinganligidir.

Zamonaviy jamiyatda ta’lim-tarbiya tizimini rivojlantrishning bosh go‘yasi shaxsning turli hil sohalarida maqsadli mustaqil faoliyati asosida uning intellektual va axloqiy-ma’naviy rivojlanishidir. Zamonaviy o‘qituvchining kasbiy kompetentligini rivojlantirishdan avval ushbu tushunchaning asl mohiyatini, shundan so‘ng esa uni takomillashtirish yo‘llarini bilish lozim.³⁶

Yangi asrda jamiyatning barcha sohalarini shiddat bilan qamrab olayotgan tezkor va globallashuv jarayoni butun pedagogik jamoatchilikning zimmasiga yangidan yangi vazifalarni yukladi. Shu sababli o‘qituvchi shaxsi va faoliyatiga qo‘yiladigan ijtimoiy talablarning soni har qachongidan ortib bormoqda. Ma’lumki, pedagogik faoliyat ta’lim maqsadlarini amalga oshirishga qaratilgan holda, maxsus tashkil etiluvchi va o‘qituvchi hamda o‘quvchining o‘zaro munosabatlariga asoslanuvchi ijtimoiy faoliyat turi. Pedagogik faoliyat samaradorligining shartlaridan biri kadrning kasbiy-pedagogik kompetensiyasi hisoblanadi. Uzluksiz ta’lim-tarbiya tizimida o‘qituvchining kasbiy tayyorgarligi muammosi zamonaviy talablar doirasida o‘rganib chiqilishi asosida zamona o‘qituvchisining kasbiy, shaxsiy tayyorgarligiga nisbatan qator talablar tizimi shakllantirilgan. O‘qituvchining kasbiy shakllanishi o‘z-o‘zini tarbiyalab borishga, o‘z ustida tinmay ishlashga va o‘z vaqtida malakasini oshirib borishga uzviy bog‘liq. Bularning hammasi kasbiy fazilatlarining ajralmas qismi hisoblanadi. O‘zbekistonda aynan tasviriy

³⁶ https://www.oriens.uz/media/journalarticles/69_Amanlikova_Nafisa_Raxmatullayevna_508-513.pdf

san’at ta’lim tizimini o’sib kelayotgan yosh avlod ta’lim-tarbiyasining milliy g’oyalari, talablari asosida tashkil etish, uni jamiyat taraqqiyoti istiqbollari va jahon andozalariga javob bera oladigan darajada bo’lishini ta’minlash bugungi kunning dolzarb masalasidir.

Pedagogik mahorat – o’qituvchi ijodkorligining oliy namunasi bo’lib, u yillar davomida shakllanadi. Uning yuksak mahoratni egallashi g’oyat murakkab jarayon bo’lib, pedagogika fanining eng dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. O’qituvchi kasbiga xos bo’lgan ko’pgina fazilatlar bilan birga uning pedagogik mahoratni egallashi katta ahamiyatga ega. Yuqori pedagogik mahoratga ega bo’lgan o’qituvchigina o’z kasbiga layoqatli, iste’dodli bo’lishi mumkin.³⁷

Oliy ta’lim tizimida tasviriy san’at o’qituvchilarini tayyorlash bo’lajak mutaxassislarni badiiy-ijodiy va kasbiy-pedagogik jihatlar bo’yicha tarbiyalashni nazarda tutadi. Quyida biz bo’lajak tasviriy san’at o’qituvchisini professional faoliyatga tayyorlash, uning kasbiy kompetentligini yagona psixologik-pedagogik va badiiy-ijodiy yo’nalishlar uyg’unligida shakllantirish sifatida ko’rib chiqamiz. Kasbga badiiy-ijodiy jihatdan tayyorlash muayyan tajribalar orttirishni talab qiladi va ular quyidagilarni shakllantirishga yo’naltirilgan:

- turli davr o’zbek va horijiy xalqlarning tasviriy san’ati nazariyasi va tarixini o’rganishni nazarda tutadigan madaniy-tarixiy kompetentlik;
- san’atning turli sohalariga taalluqli badiiy ifodalash vositalari bilan ishlashni o’rganishdan iborat badiiy-amaliy kompetentlik;
- tasviriy san’atning yuksak ma’naviy-ahloqiy, estetik ideallarga tayangan badiiy did va baholash mezonlarini singdirish.

Mutaxassis kasbiy faoliyati ijodkorlik, yaratuvchanlik bilan bog’liq bo’lgani sababli badiiy tayyorgarlik masalasi ustuvor ahamiyat kasb etadi. Biz bu jarayonni tasviriy san’at sohasi bo’yicha kasbiy kompetensiyani shakllantirish, badiiy-ijodiy tafakkur, turli ifodalash vositalari hamda materiallar yordamida badiiy obraz yaratish sohasi bo’yicha maxsus qobiliyatlarni rivojlantirish sifatida tasavvur qilamiz.

XULOSA

Bo’lajak tasviriy san’at fani o’qituvchisining kasbiy shakllanishi oliy o’quv yurti dargohida kasbiy ta’lim olish jarayonida boshlanadi. Pedagogika oliy o’quv yurtlarining o’quv-reja va fanlar bo’yicha dasturlarida bo’lajak o’qituvchilarga shu kasbning sir-asrorlarini o’rgatish, ilmiy bilimlar berish, o’qituvchi kasbi haqida ma’lumot berish va ko’nikma hosil qilish nazarda tutiladi. Ta’lim jarayonida fanlar bo’yicha amalga oshiriladigan seminar, amaliy va laboratoriya mashg’ulotlari nazariy bilimlarni

³⁷ https://kopilkaurokov.ru/prochee/prochee/statia_oqituvchining_kasbiy_kompetensiyasi_turlari

mustahkamlashga hamda ularni ko‘nikmaga aylantirishgagina emas, balki ularni amaliy ish jarayonida qo‘llashga ham imkon beradi. Bunday mashg‘ulotlar tanlagan kasbi to‘g‘ri ekaniga ishonch hissini uyg‘otadi. Oliy o‘quv yurtidan keyingi davrdagi o‘qituvchining kasbiy shakllanish jarayonida maktab rahbariyati, ayniqsa, ilmiy mudir hamda pedagogik jamoatchilik katta rol o‘ynaydi. Shaxsni har tomonlama rivojlantirishga yo‘naltirilgan ta’lim-tarbiya tizimini nazariy-metodologik jihatdan qurollantirish – bugungi kunda pedagogika fanining bosh maqsadi sifatida belgilangan. Yuqorida bayon etilgan yuksak, ammo, sharaflil vazifalarni muvaffaqiyatli uddalash har bir pedagogik xodimdan yuksak kasbiy mahorat, bilimdonlik va keng dunyoqarashni talab etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Nabiyev. M. Rangshunoslik va Rangtasvir asoslari. T. 1995 yil.
2. Hasanov. R. Narsani o'ziga qarab rasm chizish. T. 1969 yil
3. Abdirasilov S.F. Tasviriy san’at metodikasi. T., «Ilm-Ziyo», 2006.
4. Abdirasilov S.F., Tolipov.N.X. Tasviriy san’at o‘qitish metodikasi. T., «Aloqachi», 2007.
5. Boymetov B.B., Abdirasilov S.F. Chizmatasvir. T., «G‘afur G‘ulom», 2004.
6. Nabiyev M.N. Rangshunoslik. T., « O ‘qituvchi», 1995
7. Oripov B. Tasviriy san’at va uni o‘qitish metodikasi. T., «IlmZiyo», 2006.